



Shaxsga yo`naltirilgan ta`lim

Toshmatova Barno Bahrom qizi

O`zbekiston Jahon tillari universiteti

Xorijiy til va adabiyot: Ingliz tili fakulteti

Annotatsiya: Ilmiy texnik taraqqiyot jadallashgan davrda o`qitish samaradorligini oshirish maqsadida yangi o`qitish uslublari ishlab chiqilmoqda. Bu maqolada jahon standartlariga to`gri keladigan - shaxsga yo`naltirilgan ta`lim, uning afzalliklari, xususiyatlari va ta`lim tizimida qanday natijalar olib kelgani haqida ko`rib chiqamiz. Internet va texnologiya rivojlanayotganligi tufayli, talabalarning ham darsga yondashuvi, intellektual fikrlashi, dunyoqarashi, ma`lumotlarni qabul qilishi o`zgarib bormoqda. Bu esa innovatsion g`oyalarni va yangi yondashuvlarni talab qiladi, ya`ni darsda texnologiyalarni integrallashtirish va shaxsga yo`naltirilgan ta`limni rivojlantirish.

**Kalit so`zlar:** shaxs, shaxsga yo`naltirilgan ta`lim, ta`lim muhiti, rivojlantiruvchi ta`lim

Kirish. Har bir insonning o`z o`zini bilishi, har bir shaxsning o`ziga xosligi, uning rivojlanishi, o`z ustida ishlashi, kelajakdagi maqsadlariga erishishi uchun qilayotgan xatti-harakatlari zahirida puxta bilim olish asosiy o`rinda. Internet va texnologiya asrida yashar ekanmiz, pedagoglardan ta`lim tizimida yangi innovatsion ta`lim berish uslublari va metodikalar talab qilinadi. Oldingi avtoritar ta`lim texnologiyasiga qarar ekanmiz, bunda pedagog subyekt sifatida, talaba esa obyekt sifatida qaralgan. Bu uslub an`anaviy uslub hisoblanib, pedagog asosiy rolda bo`lib, talaba vazifani bajarishi lozim bo`lgan shaxs hisoblangan. Bunda talabaning tashabbuskorlik va mustaqilligi yo`qoladi va asosan bilim



va ko'nikmalarni o'zlashtirish muhim bo'lgan, shaxs rivojlanishiga e'tibor qaratilmagan. Hozirgi davrda esa shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'tilmoqda. Bunda, pedagog ham talaba ham subyekt hisoblanib, shaxs rivojlanishi uchun birga ishlanadi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda talabaning qiziqishlari, ehtiyojlari va shaxsiy manfaatlari inobatga olinadi. Kadrlash tayyorlash milliy dasturining ta'lim milliy modelining asosiy tarkibi - «Shaxs» birinchi o'rinda turadi. Boshqacha aytganda, butun ta'lim tizimi, shu jumladan, o'qitish shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Bunda pedagogning talabaga bo'lgan munosabati o'zgaradi, ya'ni endilikda talabalarning qobiliyatlarini hisobga olish, layoqatini oshirish va qiziqishlarini qo'llab quvvatlashdan iborat. Pedagog talaba bilan hamkorlikda ishlashi, ya'ni pedagog ham subyekt, talaba ham subyekt hisoblanadi. Avvalo shaxsga yo'naltirilgan ta'limda talabaga mustaqillik berish, xatolar ustida ishlashi va qayta urinib ko'rishiga imkoniyat berishi kiradi. Bu ta'lim tizimida talabalar fikrlarini mustaqil bayon eta olishlari, tanqidiy fikrlashlari va maummolarni mustaqil hal qila olishlariga yo'l ochadi. Umumiylashtirsak: ta'qiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish. Pedagoglar esa shunday muhitni yaratib berishlari, talabaning ruhiy holatini to'g'ri baholashlari, uning qobiliyatlarini va qiziqishlarini inobatga olishi, uning imkoniyatlariga ishonch berishi, har bir talabaga tolerant munosabatda bo'lishlari lozim. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda asosan talabalarga ijodiy ishlar berish, kreativlikni oshiruvchi vazifalar, debatlar tashkil etish, turli musobaqalarga yo'naltirilishi lozim. Hozirgi kunda nafaqat ta'lim texnologiyasi o'zgarmoqda, balki maktab o'quv darsliklarida ham bir qancha o'zgarishlar kiritilmoqda. Ona tili va adabiyot fanini misol qilib oladigan bo'lsak, oldingidek uzun grammatik qoidalar yodlanmaydi, balki matn shaklida beriladi. Matnlar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiruvchi mashqlar berilgan, bunda matn tahlil qilish qobiliyatini, matn yaratish ko'nikmalarini oshirish va avvalo tanqidiy va ijodiy fikrlash, tadqiqotchilik ko'nikmalarini egallashga yordam beradi. Adabiyot fanida esa har bir badiiy asar bilan alohida ishlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish, asardagi obrazlar bilan tanishish, asardagi muammolarga o'z yechimini berish, asar g'oyasini aniqlashga



qaratilgan. Bunday o'zgarishlardan asosiy maqsad shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qo'llab quvvatlash. Pedagog bergan ma'lumotlarni yodlab olish emas, o'z ustida ishlashni, tanqidiy fikrlashni, har qanday vaziyatga o'z fikrini bayon eta olishni oshiradi. Xususan Prezidentimiz ham o'z nutqlarida: "Yangi O'zbekiston maktab bitiruvchisi zamonaviy ko'nikmalarni egallagan, axborot texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan, kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan, dunyoqarashi keng shaxs bo'lib yetishadi" deb ta'kidlaganlar.

Oliy ta'lim tizimida esa, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrda PF-5847-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik-texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgantalabalar ulushini oshirish, kredit-modul tizimini joriy etish, o'quv rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Bu farmondan so'ng O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish ishlari amalga oshirilmoqda. Kredit modul tizimi ham shaxsga yo'naltirilgan ta'lim hisoblamadi. Bunda talabaga mustaqillik berish va o'z ustida ishlashi maqsadida hafta bir kun mustaqil ta'lim kuni deb belgilangan. Hattoki leksiyalarda ham asosiy diqqat markazga talaba qo'yilgan. Faqatgina ma'ruza shaklida emas, balki qiziqarli va tushunarli bo'lishi uchun talabalarni ham jalb qilish, ularni tashabbuslarini qo'llab quvvatlash ham kiradi. Kredit modul hemis axborot tizimi orqali boshlariladi, bu adolatli baholash tizimini ta'minlab beradigan, mustaqil ta'limga yo'naltirilgan tizim hisoblanadi. Pedagoglar o'quv materiallarni hemis tizimiga yuklashadi, natijada talabalar qayta o'zlashtirishi va o'z ustida ishlashi mumkin. Baholar diagnostikasini kuzatib borish mumkin va uyga vazifalar masofadan turib yuklanadi.



Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yangi asr yoshlariga yangicha uslubda yondashish lozim. Har bir o'rganuvchi bir “Shaxs”, uning yuksalishi uchun pedagoglarning o'rnini katta. Qiziqishlarini qo'llab quvvatlash, layoqatini to'g'ri baholay olish, maqsadlariga to'g'ri yo'naltirishlari lozim. Agar pedagogni bog'bon desak, bog' va undagi gullar, daraxtlar bu - o'rganuvchilar. Agar bog'bon yaxshi parvarish qilsa, daraxtlar novdalari tekis va to'g'ri o'sadi va keyinchalik meva beradi. Daraxtlar va gullarning xilma xilligi esa har birining o'zgachaligi va har birining o'z o'rnini va vazifalari borligini anglatadi.

References:

1. Bozorova M. KREDIT-MODUL TIZIMI SHAROITIDA TA'LIMNI TASHXIS ETISH. ILM-FAN VA INNOVATSIYA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI.
<https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/34891/22278/35872>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, farmoni 1-ilovasi, 2-bandi
3. M.Jumaniyozova, N.Isaqulova. Umumiy pedagogika fanidan O'UM 2-qism. TOSHKENT – 2025.
4. Yangi darsliklar nimasi bilan farq qiladi? Gazeta.uz
<https://www.gazeta.uz/oz/2022/09/16/new-textbooks/>
5. “Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir” — Shavkat Mirziyoyev Daryo.uz
6. <https://daryo.uz/2023/12/09/mamlakatni-qudratli-millatni-buyuk-qiladigan-kuch-bu-ilm-fan-talim-va-tarbiyadir-shavkat-mirziyoyev>